

TURIZM SOHASINI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSIYON JARAYONLARDAN SAMARALI FOYDALANISH IMKONIYATLARI

MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA

MATERIALLARI

SAMARQAND – 2024

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti

Navoiy viloyati Turizm boshqarmasi

“Ipak yo‘li” turizm va madaniy meros xalqaro universiteti

Turizmni rivojlantirish instituti

Qozon Federal universiteti

Tambov davlat universiteti

L.N.Gumilev nomidagi Evroosiyo milliy universiteti

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI

“TURIZM” KAFEDRASI

“TURIZM SOHASINI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSIYON JARAYONLARDAN SAMARALI FOYDALANISH IMKONIYATLARI”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

MATERIALLARI

Konferensiya, O‘zbekiston Respublikasi Perezidentining 2023-yil 26-apreldagi “Respublikaning turizm salohiyatini jadal rivojlantirish hamda mahalliy va xorijiy turistlar sonini yanada oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-135 sonli Qarori ijrosi yuzasidan o‘tkazildi

(2024-yil 25-oktabr)

SAMARQAND-2024

Turizm sohasini rivojlantirishda innovatsiyon jarayonlardan samarali foydalanish imkoniyatlari. / 2024-yil 25-oktabr. Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. Samarqand, SamISI, 2024.-615 bet.

To‘plovchi va nashrga tayyorlovchilar:
S.A.Abduhamidov-kafedra mudiri, dotsent
G.R.Tursunova-kafedra dotsenti v.b.
A.Y.Talibova-kafedra o‘qituvchisi

Nashr uchun mas’ullar:
I.S.Tuxliyev-kafedra professori, i.f.d.
R.S.Amriddinova-kafedra dotsenti, i.f.n.
A.P.Maxmudova-kafedra dotsenti, i.f.f.d.
R.Hayitboyev-kafedra dotsenti v.b.

Ilmiy-amaliy konferensiya materiallarida Turizm sohasini rivojlantirishda innovatsion jarayonlardan samarali foydalanishning nazariy-metodologik masalalari, raqamli iqtisodiyot sharoitida xalqaro va ichki turizmni rivojlantirish tendensiyalari va istiqbollari, uchinchi renessansni shakllantirishda turizmning rivojlanishi: muammolar va yechimlar, raqamli hamda innovatsion texnologiyalardan foydalanishda iqtisodiyotning turli soha va tarmoqlarini rivojlantirish istiqbollari, Navoiy viloyatida turizm xizmatlarini diversikatsiya qilish tendensiyalari bo‘yicha ilmiy-nazariy va amaliy tavsiyalarga boy maqolalar o‘rin olgan.

Professor-o‘qituvchilar, talabalar, magistrlar, tadqiqotchilar va soha mutaxassislariga mo‘ljallangan.

Maqolalar mualliflar tahririda bosilmoqda. Ularda keltirilgan raqamlar, faktlar, xulosa va tavsiyalarga mualliflar mas’ul. Ularning ayrim fikrlari tashkiliy guruh qarashlariga to‘g‘ri kelmasligi mumkin.

© Samarqand iqtisodiyot va servis instituti, 2024

3. Birjakov M.B., Nikiforov V.I. Industriya turizma: PEREVOZKI. Izdaniye trete, pererabotannoye i dopolnennoye.-SPb.: Izdatelskiy dom Gerda, 2007.-19 s.

4. Durovich A.P. Organizatsiya turizma. Uchebnoye posobiye.-SPb.: Piter, 2012.-55 s.

5. Kuskov A.S., Djaladyan Yu.A. Osnovi turizma: uchebnik-4-ye izd., pererab.-M.: KNORUS, 2015.-250s.

6. Ilina E.N. Turopereyting: organizatsiya deyatelnosti: uchebnik.-2-ye izd., pererab. i dop.-M.: Finansi i statistika, 2014.-44 s.

M.I.Daminov-SamISI mustaqil tadqiqotchisi

O‘ZBEKISTONDA ICHKI TURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH

Аннотасия:статя посвящены усовершенствования направлении механизмов организасия и развития внутренного туризма в Узбекистане. А также даны рекомендасии по усовершенствование механизмов.

Ключевые слова: регион, зона, стратегия, программы туризма, дополнителные услуги, внутренные поездки, културные наследие.

Annotation: The article is devoted to changing the direction of the policy of organizing and developing domestic tourism in Uzbekistan. Recommendations for modernizing the concept are also given.

Keywords: region, zone, strategy, tourism programs, additional services, internal travel, cultural heritage.

Butunjahon turizm tashkilotining tavsiyasi bo‘yicha ichki turizm-bir davlat fuqarolarining o‘zi yashab turgan davlati chegaralaridagi turistik faoliyati-sayohat hisoblanadi.Turizm rivojlangan davlatlar dastlab o‘z davlatlarida ichki turizmni rivojlantirish dasturlarini amalga oshirishgan. Ichki turizmni rivojlantirish orqali mamlakati fuqarolarini turizm tadbirkorligiga tayyorlashgan.Rosstat ma’lumotlari bo‘yicha ichki turizmda Rossiyaliklar 2022 yilda 119 mln. marotaba, 2023 yilda 135 mln. marotaba turistik safarga chiqishgan bu o‘tgan yilga nisbatan 16,48 % o‘sishni tashkil qiladi.

Amerika Qo‘shma Shtatlarida 2022 yilning ichki turizmida 90 mln. tunash nomerlariga buyurtma berilgan, bu o‘tgan yilga taqqoslaganda 30% ko‘p. Xitoy aholisining 2024 yil ichki turizmdagi safarlari 6 mlrd. chiqishga yaqinlashdi.Yaponlarning 62%i ichki turizmni, 38% i chet el mamlakatlariga safarga chiqish hohishini bildirishgan, 2021 yilda 40 mln. yaponlar ichki turizm safarlariga chiqishgan. Germaniyaliklarning 72% i xorij davlatlariga, 28 % i ichki turizm safarlariga chiqishadi. Bu ma’lumotlar ichki turizm rivojlangan davlatlarning iqtisodiyotiga juda katta mablag‘lar keltirayotganligidan dalolat beradi.

BTTning hisobotlari va tavsiyalari bo‘yicha pandemiyadagi cheklovlar olingandan keyin uning zararli oqibatlarini tugatish uchun davlatlar ichki

turizmni rag‘batlantirish yo‘liga o‘tishlari kerak. Chunki, pandemiyadan oldin jahonning ichki turizmida 9 mlrd. safar uyushtirilgan bo‘lib, bu ko‘rsatkich xalqaro turizmdan(1,4mlrd.) 6 karra ko‘p. Ichki turizm davlatlarda ish o‘rinlarining saqlanib qolishi, aholi va davlatning qo‘shimcha daromadlar olishini ta’minlaydi. Jahonda ichki turizmning eng katta bozorlari AQSh (1 trln. $), Germaniya (249 mlrd. $), Yaponiya (201 mlrd. $), Buyuk Britaniya (154 mlrd. $), Meksika (139 mlrd. $) davlatlari hisoblanadi.

O‘zbekistonda ichki turizmni rivojlantirish Prezidentimizning «O‘zbekiston Respublikasining turizm sohasini jadal rivojlantirishni ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi 2016 yil 2-dekabrdagi PF-4861 sonli Farmonida– *ichki*, kirish va chiqish turizmini kompleks rivojlantirish ning milliy va hududiy dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish”belgilangan edi. Shuningdek, Prezidentimiz hududlarni barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng muhim omillaridan biri sifatida ichki turizmni jadal rivojlantirish, fuqarolarni mamlakatimiz ning madaniy-tarixiy merosi hamda tabiiy boyliklari bilan tanishtirish maqsadida: «Ichki turizmni jadal rivojlantirishni ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi 2018 yil 7 fevral, PQ-3514-sonli Qarori vatanimizda ichki turizmni rivojlantirishning istiqbolli bosqichini boshladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «O‘zbekiston Respublikasi da ichki va ziyorat turizmini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida farmoni, Prezidentimizning 2022 yil 30 apreldagi «Ichki turizm xizmatlarini diversifikasiya qilishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida» PQ-232-sonli Qarori. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi 2022-yil 28-yanvardagi PF-60 sonli Farmoni, 2024 yil 12-yanvardagi “Respublikaga xorijiy turistlar sonini keskin oshirish hamda ichki turizmni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”ni PF-9 sonli Farmonlarida ichki turizmni jadal rivojlantirish, ichki turizm oqimini 20 mln.ga yetkazish topshiriqlari berilgan.

Bu farmonlar va qarorlar mamlakatimizda ichki turizmni bir tekis rivojlantirish masalalarini tadbiq qilishga, ichki turizmning turlarini hududiy va mintaqaviy chegaralarda ommaviy rivojlantirish uchun asosiy dastur bo‘lib xizmat qiladi. Shuning uchun ham, ichki turizmni jadal rivojlantirishning jiddiy muammolarini aniqlashimiz, bu muammolarning yechimlarini, tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini zamon turizmi talablarida takomillashtirishni ishlab chiqishning ilmiy-amaliy tadqiqotlarni amalga oshirishimiz mamlakatimizda ichki turizmni jadal rivojlantirishdagi dolzarb masalalardan hisoblanadi.

Ikkinchidan, O‘zbekiston turizmi rivojlanishdagi taraqqiyot turizmdagi yangi imkoniyatlarni, yangi resurslarni izlamoqda. Turizmni rivojlantirishda izlanayotgan resurslar va imkoniyatlar mamlakatimizda ichki turizm sohasini rivojlantirish yo‘nalishida hisoblanadi. Mavzuning yana bir muhim dolzarbligi shundaki, hanuzgacha turizm mutaxassislari tomonidan ham, turizm boshqaruvidagi tashkilotlar tomonidan ham, turizm tadbirkorligida ham ichki

turizmni rivojlantirish muammolarini jiddiy tadbiq qilish e’tibordan chetda qolib kelmoqda.

O‘zbekiston Respublikamizning butun hududlari, har bir qarich yeri, tabiiy va ijtimoiy-iqtisodiy boyliklari hayoti ichki turizmning resurslari hisoblanadi. Shu bilan birga hozirgi milliy turizm taraqqiyoti sharoitlaridan kelib chiqib, hozirgi imkoniyatlarimiz va aholining ichki turizmdagi hozirgi faoliyatini hisobga olib, ichki turizmni jadal rivojlantirishda turizmning istiqbolli turlarini aniqlashimiz lozim. O‘zbekistonda hozirgacha turizmdagi 15 ta tur ta’riflangan.



1-rasm. **O‘zbekiston ichki turizmini turizmning istiqbolli turlari bilan rivojlantirish yo‘nalishlarini takomillashtirish**

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati: tahlili va turistik firmalar faoliyatini o‘rganishdan ma’lum bo‘ldiki, mamlakatimizning aholisi asosan qayd qilingan 15 ta turizm turlarining 5 tasida faol turistik faoliyat ko‘rsatmoqda. Shuning uchun ham, Prezidentimizning Farmonlari va Qarorlarning talablari asosida vatanimizda turizmning quyidagi 4 ta turidan foydalanishni maqsadli deb hisoblaymiz (1-rasm):1-ichki tarixiy–madaniy obidalar turizmini rivojlantirish; 2-ichki ziyorat turizmini rivojlantirish; 3-ichki ekoturizmni rivojlantirish; 4-ichki gastronomiya turizmini rivojlantirish.

Ichki turizmni jadal rivojlantirishda qayd qilingan turlardan hozirgi ichki turizm talablari bo‘yicha samarali foydalanishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini ishlab chiqish, uslubiyatini yaratish, turistik ekskursiya marshrutlarini va turistik eksursiyalarni rejalashtirish dasturlarini ishlab chiqishimiz lozim. Bu turlarning resurslari aholimiz yaxshi bilganligidan ularning to‘liq tasnifi va tavsifilarini matn hajmlarini hisobga olgan holda dissertasiyada keltirishning talabi yo‘q deb hisoblaymiz.



2-rasm. **O‘zbekistonda ichki turizmni rivojlantirishning axborot markazlarini tashkil qilishni takomillashtirish**

Xalqaro turizmdagi ekspertlarning xulosalari bo‘yicha davlatlarda turizmning taraqqiyoti darajalari davlatda turizmning ko‘plab turlarini rivojlantirishga bog‘liq. Chunki, turizmning har bir turlariga qiziquvchi lar bo‘lishligi, turlarga keluvchilarning yig‘indisi albatda miqdorlarni oshirishi ma’lum tushuncha.

Mamlakatimizning ichki turizmidagi statistik ma’lmotlarning tahlili va kuzatuvlarimizdan ma’lum bo‘ldiki, ichki turizmdagi turistlarimiz asosan yuqorida qayd qilingan 4 ta turizm turlarida asosiy oqimlarni tashkil qilmoqda. Xulosalarimiz bo‘yicha ichki turizmni jadal rivojlantirishda aynan shu turlardan foydalanishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirishimiz lozim. Bu yo‘nalishda istiqbolli turlardan ichki turizmda foydalanishda qo‘shimcha xizmatlarni tavsiya qilamiz (1-rasm).

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning «Turizm, sport va madaniy meros sohalarida davlat boshqaruvi tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Farmonida-*«turizm* xizmatlarining tashqi va ichki bozorlarida marketing tadqiqotlari olib borishga,tarixiy-madaniy merosni keng targ‘ib qilishga, mamlakatimizning turizm qiyofasini saqlab qolish va rivojlantirishga, milliy turizm mahsulotlari va brendlarining xalqaro turizm bozorlariga kirib borishiga yo‘naltirilgan faol reklama-axborot siyosatini amalga oshirish» belgilangan.

Xulosalarimiz bo‘yicha mamlakatimizda ichki turizmni jadal rivojlantirishda qaysi axborot tizimlaridan foydalanish maqsadli ekanligini aniqlashimiz zarur. Axborotli tizimlarni loyihalashtirish mezonlaridagi markaziy vazifa-boshqaruv faoliyatida axborotlarning uzatilishini yaxshilash, axborotlanganlik darajasi-talab qilingan axborotlar darajasining olingan aniq axborotlarga nisbati, axborotlarga ehtiyoj-ular o‘rtasidagi farqlar hisoblanadi.

Ushbu farmondagi topshiriqlar va ko‘rsatmalarga asoslanib, O‘zbekiston ichki turizmining axborot-reklamalar markazlarini quyidagi istiqbolli yo‘nalishlar bo‘yicha yaratishni maqsadli deb hisoblaymiz (2-rasm).

1. Davlatlarda turizmning taraqqiyoti darajalari davlatda turizmning ko‘plab turlarini rivojlantirishga bog‘liqligini hisobga olib, mamlakatimizda ichki turizmni quyidagi 5 ta istiqbolli turlar bilan rivojlantirishni tavsiya qilamiz: 1-ichki tarixiy–madaniy obidalar turizmi; 2-ichki ziyorat turizmi; 3-ichki ekoturizm; 4-ichki gastronomiya turizmi; 5-qishloq turizmi.

2. 2.O‘zbekistonda ichki turizmni rivojlantirishning axborot markazlarini tashkil qilish mexanizmi quyidgi tarkiblarni qamrab olishi lozim (ichki turizmning ma’muriy-taqsimlovchi axborotlari; ichki turizmning ishlab chiqaruvchi axborotlari; ichki turizmning moliyaviy axborotlari; ichki turizmning tijoratli axborotlari; ichki turizmning innovasiyali axborotlari; ichki turizmning strategik axborotlar Dasturi).

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning «O‘zbekiston Respublikasining turizm sohasini jadal rivojlantirishni ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi 2016 yil 2-dekabrdagi PF-4861 sonli Farmoni.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori: «Ichki turizmni jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida».. Toshkent sh.,2018 yil 7 fevral, PQ-3514-son.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «O‘zbekiston Respublikasi da ichki va ziyorat turizmini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida farmoni. Toshkent shahri, 2021 yil 9 fevral
4. https://rulaws.ru/acts/Vedomstvennaya-programma-tsifrovoytransformatsii-Federalnogo-agentstva-po-turizmu-na-2022-2024-gody. 12.11.2023.
5. Jurnal Click. Magazine, 6 iyun 2023
6. https://info.advertising.expedia.com/european-travel-and-tourism-trends-for-german british-french-travellers
7. Daminov M.I., O‘zbekistonda ichki turizmni rivojlantirish mexanizmlari. “Servis” J., № 1, Samarqand, 2019.-100 bet.

R.S.Amriddinova-SamISI, Turizm kafedrasi dotsenti,
M.Qahramonova-SamISI magistranti

MEHMONXONA BIZNESIDAGI TEXNOLOGIYALAR VA INNOVATSIYALAR

Abstract. The ultimate goal of introducing any innovation is to increase business competitiveness. This approach works for any business, including the hotel business. This article provides information about technologies and innovations in the hotel business.

Keywords: hotel business, "Smart Home" technology, "smart window", robotics, software products, virtual tours and augmented reality technologies.

Mehmonxona biznesidagi zamonaviy texnologiyalarga quyidagi sabablarga ko‘ra muhimdir:

- xonani bron qilishni va mehmonxonada qolishni mehmonlar uchun qulayroq qilish va shu bilan ularning sodiqligini oshirib, doimiy mijozlar toifasiga o‘tkazish;
- sayyohlarning e'tiborini jalb qilish, qiziqish uyg‘otish, bu xonalarni sotish hajmini oshirishga yordam beradi;
- mehmonxona boshqaruvini takomillashtirish, bu xizmat sifatini oshirish va xarajatlarni kamaytirishga yordam beradi;
- mehmonxonani saqlash xarajatlarini to‘g‘ridan-to‘g‘ri kamaytirish.

“Aqlli uy” texnologiyalari mehmonxona muhitida ajoyib ishlaydi. Masalan, eng mashhur xalqaro mehmonxona tarmoqlari Marriott va Hilton bir necha yillardan beri kalitlar yoki plastik kartalar o‘rniga mobil telefon ilovalaridan foydalanmoqda . Mehmon butun yashash muddati davomida o‘z

SH.MAKSUDOVA	TRANSFORMATSIYASI: AN'ANAVIY EKSKURSIYALARDAN …….....……	
C.O.РАХИМОВ **Р.С.АМРИДДИНОВА**	ПЛАТФОРМА AIRBNB-ДОСТУПНОЕ ПУТЕШЕСТВИЕ. ПРЕИМУЩЕСТВА И НЕДОСТАТКИ AIRBNB…….....	196
SH.A.MUSAYEVA	MODELS AND NEW TRENDS IN THE PROCESS OF FORMING TOURIST FLOW……	200
Х.К.КАРШИБОЕВ **К.К.МУРАДОВ**	ОСНОВНЫЕ ТЕНДЕНЦИИ РАЗВИТИЯ МИРОВОГО ИНДУСТРИИ ТУРИЗМА И ГОСТЕПРИИМСТВА ……	206
С.Е.МАЧАЛКИН **С.Н.МОРЕВА**	ПЕРСПЕКТИВЫ АВТОМАТИЗАЦИИ И РОБОТИЗАЦИИ В ГОСТИНИЧНЫХ ПРЕДПРИЯТИЯХ…….....……	209
F.E.JOMONQULOVA	RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA XALQARO VA ICHKI TURIZMNI RIVOJLANTIRISH TENDENSIYALARI VA ISTIQBOLLARI…….…….....…….……	214
F.O.HUSANOV	TURISTIK OQIMLAR VA TRANSPORT MASALALARINI MODELLASHTIRISH……..	218
S.R.BOBOKALONOV	DESTINATSIYA JOZIBADORLIGINI BAHOLASHNING "RAQAMLI TAFOVUT INDEKSI"NI ANIQLASH METODIKASI…….....…….....	224
F.D.JO'RAYEV **U.Z.RAXIMOVA**	TURIZM INFRATUZILMASINI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSIYALARNING ROLI HAQIDA EKONOMETRIK TAHLIL…….....	232
G.R.TURSUNOVA	TURISTIK MAHSULOT VA TURPAKETNING MOHIYATI……...	235
M.I.DAMINOV	O'ZBEKISTONDA ICHKI TURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH….....…….	241
R.S.AMRIDDINOVA **M.QAHRAMONOVA**	MEHMONXONA BIZNESIDAGI TEXNOLOGIYALAR VA INNOVATSIYALAR.....	246
А.П.МАХМУДОВА **М.КИМ**	ПУТИ РАЗВИТИЯ ЭКОТУРИЗМА В УЗБЕКИСТАНЕ……...	249
Р.ҲАЙИТБОЕВ **М.АБДУЛЛАЕВА**	ТУРИЗМНИ ҚИШЛОҚЛАРИМИЗДА РИВОЖЛАНТИРАЙЛИК……	252
А.Ю.ТАЛИБОВА	ПРОБЛЕММЫ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ИННОВАЦИОННЫХ ПРОЕКТОВ В ГОСТИНИЧНОМ БИЗНЕСЕ……..	257
SH.E.ABDURASULOV **N.S.JABBOROVA**	SARGUZASHT TURIZMIDA RAQAMLI VA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH USULLARI VA ISTIQBOLLARI……	261
Н.У.УРУНОВА	АҲОЛИНИНГ ДАМ ОЛИШИДА ЭКОТУРИЗМ-РЕКРЕАЦИЯ ХИЗМАТЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ…….....……..	264